

Turonbankning ishlab chiqarish XV seminari

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti B-bino 109-auditoriyasida "Iqtisodiyot" fakultetida tahsil olayotgan "TURONBANK" ATB stependiat talabalari va professor o'qituvchilari uchun 15.02.2025 yilda "TURONBANK" ATB Operatsion departamenti direktori Aziz Aripov bilan " Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning mexanizmlari («Turonbank» ATB Misolida)" mavzusida 2024-2025 o'quv yili uchun rejalashtirilgan XV-seminar tashkil qilindi.

Aziz Aripov tomonidan TIF tushunchasi, Mijozlarining tashqi savdo faoliyati, Xorijiy davlat valyutalari va konvertatsiya amaliyoti, Mijozlarning tashqi savdo faoliyati jarayonida tomonlarning o'zaro xisob-kitoblari, Bankning xalqaro munosabatlari, Savdoni moliyalashtirish va dokumentar amaliyotlari bo'yicha malumotlar berdi.



TIF - bu tashkilotlarning jaxon bozorlarida ishlash yo'nalishi bo'lib, u quyidagi funksiyalarni o'z ichiga oladi:

tashqi iqtisodiy strategiyani;

ishlash shakllari;

ishlash usullari.

Maruza yuzasidan talaba yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani o‘rinbosari

U.Xoliyorov ma’lumoti

Universitet matbuot xizmati